

O'ZBEKISTON – JANUBIY KOREYA: TA'LIM SOHASIDAGI HAMKORLIKNING YANGI ISTIQBOLLARI

Muhriddin Turahonovich Alohanov

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
o'qituvchisi.

muhriddin.history@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining Janubiy Koreya bilan ta'lif sohasidagi xalqaro hamkorligining rivojlanish bosqichlari, hamkorlik o'rnatilgan mamlakat, hamkorlik natijalari va kelajak rejalarining tahlil qilib beriladi. Shuningdek, O'zbekistonda mustaqillik yillarda ta'lif sohasida amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ta'lif, islohat, sivilizatsiya, fan, mamlakat, madaniyat, olim, akademiya, hamkorlik, qonun, hukumat, manfaat,

УЗБЕКИСТАН-ЮЖНАЯ КОРЕЯ: НОВЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ СОТРУДНИЧЕСТВА В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Мухридин Турахонович Алоханов

Учител. Ташкентского государственного
педагогического университета им. Низами

muhriddin.history@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В этой статье анализируются этапы международного сотрудничества Республики Узбекистан с Южной Кореей в области образования, сотрудничества, результатов сотрудничества и планов на будущее. Также анализирует реформы в Узбекистане в годы независимости.

Ключевые слова: Образования, реформа, сивилизация, наука, государство, культура, учёный, академия, закон, правительство, выгода

UZBEKISTAN-SOUTH KOREA: NEW PERSPECTIVES OF COOPERATION IN THE EDUCATION SECTOR

Muhriddin Turaxonovich Alohanov
Teacher at Tashkent State Pedagogical
University named after Nizami
muhriddin.history@gmail.com

ABSTRACT

This article discusses the stages of international cooperation of the Republic of Uzbekistan with South Korea in the field of education, cooperation, results of cooperation and plans for the future. Also analyzes the reforms in Uzbekistan in the years of independence.

Keywords: Education, reform, civilization, subject, country, culture, scientist, academy, coexistence, law, government, benefit

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION). O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishdir.[1] Shuning uchun, O‘zbekiston dunyoning ko‘plab mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatib, rivojlantirib kelmoqda. Shundan kelib chiqib, Osiyoning iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlari bilan hamkorlik aloqlarni yo‘lga qoyilishi nihoyatda manfaatlidir. Chunki Markaziy Osiyoda o‘zining joylashgan o‘rni va geopolitik mavqeい, tabiiy resurslarga boyligi, aholi va uning ilmiy salohiyati yuqori bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi bilan aloqa qilish Osiyo mamlakatlari uchun foydalidir. Shu bilan birga Osiyo qit’asida o‘zining siyosiy ta’siriga ega, Osiyo mintaqasida eng ta’sirli, hamda iqtisodiy o‘sishi bo‘yicha jahonning rivojlangan mamlakatidan hisoblanadigan, yuksak texnologiyalarga ega, uning erishgan yutuq va tajribalaridan foydalanish imkoniyalari ancha keng bo‘lgan Osiyo mamlakatlari bilan xamkorlik qilish va uni rivojlantirib borish O‘zbekiston uchun katta ahamiyatga ega hisoblanadi. O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritib, erkin taraqqiyot yo‘lini tanlagach, jahon hamjamiyatining teng huquqli a’zosi sifatida xalqaro munosabatlarda faol ishtirok eta boshladi. O‘zbekiston o‘zaro munosabatlarda tenglik, boshqa davlat ichki ishlariga aralashmaslik, o‘zaro foydali hamda teng huquqli hamkorlikni rivojlantirish, mintqa va butun dunyo miyisosida tinchlik, xavfsizlik hamda barqarorlikni ta’minalash kabi tamoyillarga tayangan holda jahon hamjamiyati safiga dadil kirib kela boshladi.

O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, xalqaro munosabatlar tizimida munosib o‘rin eggallashi o‘z manfaatlarini siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy sohalarda samarali amalga oshirish bilan belgilanadi. Mustaqillikka erishgach O‘zbekistonda milliy hayat va pedagogik tafakkur hamda jahondagi ilg‘or tajribalar ta’sirida ta’lim tizimini sog‘lomlashtirish hamda yangilash jarayoni boshlandi. Erishilgan natijalarni o‘zgalarniki bilan qiyoslash, ulardagi ijobiy jihatlarni o‘zlashtirish hamda O‘zbekistonning bu sohada erishgan natijalari va maqsadlarini boshqalar bilan baham ko‘rish va boyitish imkonini tug‘ildi. O‘tgan qariyb o‘ttiz yil davomida ta’lim sohasidagi aloqalar keng rivojlanib bordi. Ayniqsa bu Janubiy Koreya bilan ta’lim sohasidagi aloqalar katta ahamiyat kasb etib bormoqda va O‘zbekiston ta’lim tizimini rivojlanishida katta o‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA(ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ/METHODS) Ushbu mavzuni tadqiq etishda tarixiylik, obektivlik, qiyosiy taqqoslash, xronologik ketma ketlik va tarixiy izchillik tamoyillaridan foydalanib, yoritib berishga harakat qilindi. O‘z o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki mavjud ilmiy adabiyotlarni sistemasli tahlil qilish natijasi, O‘zbekiston Respublikasini Janubiy Koreya kabi dunyoning rivojlangan mamlakati bilan ta’lim va ilm-fan sohasidagi hamkorlik masalalari yetarli darajada yoritilmaganini ko‘rsatdi. Lekin bu O‘zbekistonda ikki davlat o‘rtasidagi ta’lim sohasidagi hamkorlik masalalari umuman o‘rganilmagan degani emas. Hususan, bir qancha ilmiy adabiyotlar, maqolalar va dissertatsiya yozilgan. V.Xan (Koreya tarixi. 2013), Sun Don Gi (O‘zbekiston Respublikasi va Janubiy Koreya munosabatlari: iqtisodiy, madaniy aloqalarni yo‘lga qo‘yilishi.2000) shular jumlasidandir.

NATIJALAR(РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS)

Ta’lim jamiyat madaniy hayotining muhim tarkibiy qismidir. Mamlakat taraqqiyotining darjasini va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli ko‘p jihatdan uning qay sur’atlarda rivojlanishiga bog‘liq. Bu obektiv haqiqatni anglagan O‘zbekistob hukumati respublikaning ilmiy salohiyatini har tomonlama rivojlantirish uchun barcha zarur chora tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bu amalga oshiriliayotgan chora tadbirlarni tom ma’noda ikki qismga ajratish mumkin. Bular: O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirailayoptgan va Xalqaro hamkorlik asosida chet el mamlakatlari bilan amalga oshirilayotgan chora tadbirlar.

Davlatning ta’lim sohasidagi faoliyatining asosiy vazifalari haqida fikr yuritar ekan, Prezident Shavkat Mirziyoyev shunday deb ta’kidlaydi: “Ilm-fan, zamonaviy va uzlusiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish zarur. Xalqimizda “ta’lim va tarbiya beshikdan boshlanadi” degan hikmatli bir so‘z bor. Faqat ma’rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Shu sababli, ta’lim sohasidagi davlat siyosati uzlusiz ta’lim tizimi prinsipiga asoslanishi, ya’ni, ta’lim bog‘chadan boshlanishi va

butun umr davom etishi lozim”[2] .O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritib, xalqaro maydonga chiqishi uchun horijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalarda hamkorlik qilishdek ulkan vazifalardan birini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Bu maqsad yo‘lida ko‘plab ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida jahondagi ko‘plab mamlakatlar bilan ilm-fan sohasida samarali hamkorlik aloqalarini o‘rnatish va rivojlantirishga erishdi.

Bu mamlakatlar qatorida bir qancha Osiyo mamlakatlari ham bor. Bular Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Singapur, Malayziya, Hindiston va boshqa bir qator rivojlangan mamlakatlardir. Yuqoridagi mamlakatlarda ta’lim tizimi ham o‘zining takomil bosqichiga ko‘tarilganligi bilan ahamiyatlidir. Ana shunday taraqqiyot bosqichiga erishib, hozirda dunyoda yuqori o‘rinlardan birini egallab turgan, Osiyoning eng rivojlangan manlakatlaridan hisoblangan Koreya Respublikasi hisoblanadi. O‘zbekistonning Koreya Respublikasi bilan xalqaro hamkorligi respublikaning ta’lim va ilm-fan salohiyatini jadal rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Zamonaviy davlatchiligidan tarixida Koreya Respublikasi bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida 1992 yil 29 yanvarda diplomatik munosabatlar o‘rnatalgan. O‘tgan 27 yil mobaynida hurmat va ishonchga asoslangan o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalari rivojlandi va mustahkamlandi. O‘zbekiston va Koreya Respublikasini tarixiy aloqalar, mustahkam do‘stlik, strategik sheriklik va o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalari bog‘lab turadi. Ushbu mamlakat O‘zbekistonning asosiy xorijiy hamkorlaridan biri sifatida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalardagi islohotlar jarayonida keng ko‘lamli dasturlarni amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda.

O‘zbekiston va Koreya Respublikasini katta masofa ajratib turadi. Shunga qaramay, O‘zbekiston va Koreyani mustahkam do‘stlik rishtalari, xalqlarimizni tarixiy ma’naviy yaqinlik bog‘lab turadi. Bu yaqinlikning teran asoslari bor. Ikkinci jahon urushi yillarida taqdir taqozosi bilan O‘zbekistonga kelib qolgan koreyslarga yurtimizda qanday mehr-muruvvat ko‘rsatilganini Koreya ahli mammuniyat bilan yodda tutadi. Bag‘rikenglilik, saxovat, totuvlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik o‘zbek va koreys xalqlari uchun birdek xos fazilatlardir. Ma’naviy yaqinlik o‘zaro ishonch va hurmatga asos bo‘ladi. Shuni ta’lidlash kerakki, ikki xalqning bir-biriga bo‘lgan iliq munosabati, mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlikka ham ta’sirini ijobjiy tomondan ko‘rsatib kelmoqda. O‘zaro hamkorlikning dastlabki davlaridan to shu kunga qadar aloqalar muntazam ravishda rivojlanib kelmoqda. Buni davlat rahbarlarini bildirgan fikrlaridan ham bilsa bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlari bunga yaqqol misoldir. “Koreya Respublikasi bilan O‘zbekiston Respublikasi strategik sheriklardir. Janubiy Koreya yuksak darajada taraqqiy etgan, ulkan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, innovatsion va intelektual

salohiyatga ega davlat sifatida dunyoda e'tibor qozongan. Ochiqlik, o'zaro anglashuv va manfaatlarga hurmat asosida qaror topgan hamkorligimizni yuksak qadrlaymiz”[3].

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ikki davlat o'rtasidagi aloqalar yangicha ko'rinish hosil qildi.

Shu o'rinda ta'lism sohasidagi hamkorlik ham keng ahamiyatga ega. Vaholanki ta'lism davlat rivojida katta o'rin tutadi. Ilm-fan o'z mohiyati va tabiatiga ko'ra umuminsoniy, xalqaro hodisadir. Buyuk olim Frederik Jyulio Kyuri yozganidek: “Ilm-fan – butun yer shari bo'ylab sochilib ketgan odamlar fikrining birlashuvi uchun asosiy unsur bo'lib xizmat qiladi va bu uning eng oliy fazilatidir. Mening nazarimda kishilar xuddi ilm-fandagidek tez bir bitim va kelishivga erishadigan inson faoliyatining boshqa biror bir sohasi bo'lmasa kerak.[4]

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatning madaniy-ma'naviy turmushidagi vaziyat keskin o'zgardi. “Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, - degan edi shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov, - hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, an'analarimizning saqlanishi madaniyat va san'at, fan va ta'lism rivoji bilan uzviy bog'liqidir”[5]. Yuqoridagi fikrlar ta'lism sohasini rivojlantirishga dasturil amal bo'ldi. Janubiy Koreya va O'zbekiston o'rtasidagi madaniy, ilmiy-texnikaviy aloqlar yo'nalishi, tartibi, qoidasi va darajasi har ikki davlat rahbarlarining rasmiy uchrashuvlarida (1992 yil 16 iyulda, 1994 yil 4 iyunda, 1995 yil 16 yanvardagi va 1999 yil 4-6 oktayabrdagi) qabul qilingan hujjatlarda o'z aksini topdi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti Islom Karimovning 1992 yil iyul oyida Janubiy Koreyaga qilgan rasmiy tashrifida qabul qilingan Deklaratsiyada har ikki davlat madaniyat, san'at, ta'lism, adabiyot sohasida o'zaro aloqalarini kengaytirish masalasi qo'yilgan edi.[6] 1994-yil iyun oyida Janubiy Koreya Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga qilgan rasmiy tashrifida qabul qilingan “Janubiy Korey ava O'zbekiston Deklaratsiyasida” ham har ikki davlat madaniyat, san'at, ta'lism, fan va texnika, aloqa, sport sohalari bo'yicha o'zaro ayrbosh qilish, hamkorlikda darsliklar, xalqlar haqida ensklopedik lug'atlar nashr etish masalalari haqida kelishib olingan edi. Mana shu imzolangan hujjatlar asosida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Diqqatga sazovor jihat shundaki, Koreya Respublikasida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasining bu borada o'tkazayotgan qo'llab-quvvatlash maqsadida Janubiy Koreyaning Eksimbanksi O'zbekistonda yangi tashkil qilinayotgan akademik litseylar, umumta'lism maktablarini zamonaviy o'quv-jihozlari bilan ta'minlash maqsadida 35 mln AQSH dollori miqdorida imtiyozli kredit ajratdi[7]. Davlat

rahbarlarining ana shu kelishuvlari asosida ikki davlat o‘rtasida madaniy, ilmiy-texnikaviy aloqalarga mustahkam zamin yaratildi. Kreditdan muhim maqsadlar yo‘lida foydalanildi.

Bu ikki davlatning ta’lim va madaniyat sohasidagi hamkorligining yana bir muhim jihatni oliy ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan hamkorlikdir. Oliy ta’lim muassasalarini o‘rtasidagi hamkorlik hozirgi kunda aloqalardan biri bo‘lmoxda. Bu hamkorlikning debochasi qilib O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga qarashli Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti va Sharqshunoslin institutida tashkil etilgan koreys tili yo‘nalishlarini misol qilib keltirish mumkin. Dastlab yuqoridagi ikki oliy gohda koreys tili o‘qitilgan bo‘lsa hozirgi kunda yana bir qancha oliy gohlar ham koreys tili o‘qitilmoqda. Aniq qilib aytadigan bo‘lsak, hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida 12 ta oliy ta’lim muassasasi, 48 ta mакtab va litseyda koreys filologiyasi o‘qitilmoqda[8]. Bularga misol qilib: O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti va Samarqand davlat chet tillari institutlarini keltirish mungkin. Mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlari Koreya Respublikasining o‘ttizdan ortiq ilmiy-tadqiqot muassasalarini bilan hamkorlik qilib kelayotir. Yana shuni ta’kidlash kerakki, 1992 yildan beri O‘zbekistonda Koreya Respublikasining O‘zbekistondagi elchixonasi qoshida koreys ma’rifat markazi faoliyat yuritmoqda, unda 1000 dan ortiq kishi har yili koreys tilini o‘rganmoqda. [9]

Janubiy Koreyaning ikkita institutida o‘zbek tili o‘rgatilmoqda. Bu Pusan chet tillar institutida va Xo-Se institutida O‘zbekiston haqida maxsus kurs o‘qitiladi. Jumladan, Pusan chet tillar institutining Markaziy Osiyo bo‘limida 1995 yildan boshlab o‘zbek tili o‘rgatiladi. Xo-Se institutida esa maxsus o‘zbek tili kafedrasi tashkil qilingan. Lekin, bu institutlarda oliy malakali, O‘zbekistonni yaxshi biladigan mutaxassislar yetishmaydi. Bu sohada O‘zbekiston hukumati katta yordam bermoqda.[10]

Koreya Respublikasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida dunyoda yetakchi mamlakatlardan hisoblanadi. Mamlakatimizda ham bu soha rivojiga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2013-2020 yillarda O‘zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi asosida izchil ishlar amalga oshirilmoqda, barcha jabhalarga zamonaviy axborot texnologiyalari keng joriy qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan Koreya Respublikasi Fan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kelajakni rejalashtirish vazirligi o‘rtasida samarali hamkorlik yo‘lga qo‘ylgan. Janubiy koreyalik mutaxassislar yurtimizda “yelektron hukumat” tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishga ko‘maklashmoqda.

Toshkent shahrida Inxa universiteti filialining tashkil etilishi bu boradagi hamkorlik ko‘lami va istiqbolining yorqin ifodasi bo‘ldi. Mazkur oliy o‘quv yurtida talabalar dasturiy ta’minot mahsulotlari ishlab chiqarish, axborot tizimlari va komputer tarmoqlarini boshqarish bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ta’lim olmoqda. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzurida “Yelektron hukumat” o‘quv markazi, O‘zbekiston-Janubiy Koreya axborot texnologiyalari markazi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix instituti ham Tarix fani sohasida keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirmoqda. O‘z FA tarix instituti tashabbusi bilan 2002-yilda Janubiy Koreyalik tarixchi olimlar ishtirokida Toshkentda Markaziy Osiyo tarix ko‘zgusida: o‘tmishdan kelajakka, 2003-yilda esa Markaziy Osiyo: Svilizatsiyalashgan taraqqiyot yo‘llari mavzularida xalqaro ilmiy anjuman o‘tkazildi. Mazkur instituti xodimlari Janubiy Koreyalik hamkasblari bilan o‘zaro hamkorlik aloqlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda.

2011-yil 6-7 iyul kunlari Toshkent davlat sharqshunoslik institutida O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligiga bag‘ishlangan «O‘zbekiston – Koreya: tarixiy-madaniy va iqtisodiy aloqalar holati va istiqboli» mavzusida Koreyashunoslik bo‘yicha 11-Xalqaro anjumani bo‘lib o‘tdi. Anjumanni o‘tkazishdan asosiy maqsad koreysshunoslikning bugungi kundagi dolzarb muammolari hamda erishilgan yutuqlari bilan bog‘liq masalalar doirasida mutaxassislarining xalqaro miqyosdagi tajriba va fikr almashuvini ta’minalash va bu asosda soha mutaxassislarining mavjud muammolar yechimi bilan bog‘liq hamkorlikdagi kelajak rejalarini tuzish imkoniyatini yaratish; O‘zbekiston va Koreya o‘rtasidagi tarixiy-madaniy, iqtisodiy va ilmiy aloqalar dinamikasini tahlil qilish; yosh olimlarning malakasini oshirishdan iborat edi. Bunday anjumanlar yil sayin ko‘payib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil noyabr oyida Janubiy Koreyaga oliy darajadagi tarixiy tashrifi yakunida erishilgan kelishuvlar mamlakatlarimizning o‘zaro manfaatli hamkorligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish va aniq amaliy mazmun bilan boyitish imkonini berdi. Ikki mamlakat rahbarlarining uchrashuvlarining natijasi o‘laroq boshqa sohalar kabi ta’lim sohasida ham katta o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Misol uchun: Koreya Respublikasidagi nufuzli oliy ta’lim muassasalarining filiallari ochilmoqda va ayrimlarini ochish bo‘yicha kelishuvlar amalga oshirilgan (Puchon). Shuningdek, Koreya hukumati grantlari asosida kasb-hunarga o‘qitish borasida ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 14 martdagи “Koreya Respublikasi hukumatining grantini jalb etgan holda Shahrisabz shahrida kasb-hunarga o‘qitish markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 135-sonli qarori[9] qabul qilingani ham bu ijobjiy ishlarning bir yorqin namunasidir. Yana shuni ta’kidlash

kerakki, yuqorida ketirilgan ma'lumotlar ikki mamlakat o'rtasidagi ta'lim va fan sohasidagi keng ko'lamlar ishlarning boshlanishidir. O'zbekiston va Janubiy Koreya davlatlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalari uzoq yillardan beri davom etib kelmoqda va har ikki mamlakat uchun ham birday kechmoqda. Bu ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalar zamirida yanada ko'plab loyihalar amalga oshirish rejali bor, buni yaqin kelajakda amalga oshirilib ikki mamlakat uchun foydali hamkorlik bo'lishi shubxasizdir.

XULOSALAR(ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION)

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Koreya Respublikasi O'zbekistonning eng ishonchli hamkorlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda mamlakatlar o'rtasida nafaqat ta'lim sohasida, balki ko'plar sohalarda ham aloqalar jadallik bilan rivojlanib kelmoqda. Koreya Respublikasining ta'lim sohasidagi yutuqlari va erishgan natijalarini tahlil qilish, o'zaro fikr almashish, zamonaviy kadrlar masalasidagi hamkorlik O'zbekistonning jahon hamjamiyatida har bir sohada o'z o'rni ega bo'lishida katta ahamiyatga egadir. Chunki, Koreya Respublikasi hozirgi mavqeiga erishishida bevosita ta'limning o'rni kattadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Kasymova. A., Guraev S. A. Topical issues of modern international relations. - Tashkent: Academy, 2008. - P. 233.
2. Mirziyoyev Sh. (2018). Address by the President of Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis on the most important priorities for 2019. December 28, 2018.
3. Matnazar Elmuradov, The President of the Republic of Korea has arrived in Uzbekistan. //The Newspaper "Xalq so'zi", 2019. - № 79, p.1
4. Kyrgyzboyev A.K. International cooperation of the Republic of Uzbekistan with Asian countries. - Doctor of Historical Science, Dissertation. -Tashkent, 2004, p. 231-232.
5. Karimov I.A. Uzbekistan aspires to the XXI century // We build our future with our own hands. Volume 7. - Tashkent: Uzbekistan, 1999. - p.78.
6. Sun Don Ki. Cooperation between the Republic of Uzbekistan and South Korea: the establishment and prospects of economic and cultural relations. Candidate of Historical Sciences, Dissirtation. - Tashkent, 2000. p.103-104-107.

7. In the new century - partners // The newspaper Narodnoe slovo 1999. October 8.
8. http://aza.uz/oz/politics/presidents-toshkent-sha-rida-koreys-madaniyat-va-sanat-uyi-20-04-2019?phrase_id=1428506.
9. Xan V.S. History of Korea. - Tashkent: Bakrtia press, 2013, p. 95
10. Alohanov M **O'zbekiston va janubiy koreya davlatlari o'rtaida ta'lif sohasidagi hamkorlik rivojlanishining tarixiy tahlili. Tamaddun nuri. 2019. 5-son.**
11. www.lex.uz